

O‘ZBEKISTONDA FESTIVALLARNING RAVNAQ TOPISHI

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i01.011>

Nilufar Karimova

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda festivallar tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Mustaqillik yillarida milliy va xalqaro festivallarning madaniy hayotdagi o‘rni, ularning an’anaviy san’at turlarini asrash va ommalashtirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, festivallarning turizmni rivojlantirish, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish hamda milliy madaniyatni xalqaro miqyosda targ‘ib etishdagi roli ilmiy asosda ochib beriladi. Maqolada so‘nggi yillarda davlat tomonidan festival faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tashabbuslar va ularning natijalari ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: festival, madaniy meros, milliy an’analar, madaniy siyosat, turizm, xalqaro hamkorlik, O‘zbekiston madaniyati

FESTIVALS IN UZBEKISTAN

Nilufar Karimova

Research Institute of Cultural Studies and Intangible Cultural Heritage

Abstract: This article analyzes the stages of formation and development of the festival system in Uzbekistan. The role of national and international festivals in cultural life during the years of independence, their importance in preserving and popularizing traditional art forms is highlighted. The role of festivals in developing tourism, increasing the socio-economic activity of regions, and promoting national culture internationally is also scientifically revealed. The article also examines the initiatives taken by the state in recent years to support festival activities and their results.

Keywords: festival, cultural heritage, national traditions, cultural policy, tourism, international cooperation, culture of Uzbekistan

So‘nggi o‘n yilliklarda O‘zbekistonda festivallar ijtimoiy-madaniy hayotning eng faol va ta’sirchan institutlaridan biriga aylandi. Festival hodisasi endilikda faqat “bayram” yoki “tomosha” sifatida emas, balki madaniy siyosat, turizm strategiyasi, hududiy iqtisodiy faollik, xalqaro muloqot va ijtimoiy integratsiyani birlashtiruvchi tizimli mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, tarixiy shaharlar

(Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Toshkent) va o'ziga xos etnografik hududlarda (Boysun, Xorazm) o'tkazilayotgan festivallar milliy merosni "jonli jarayon" ko'rinishida qayta tiklash, avlodlararo uzviylikni ta'minlash va O'zbekistonni ko'p madaniyatli ochiq makon sifatida ko'rsatishga xizmat qilmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi - O'zbekistonda festivallarning ravnaq topish omillari, ularning turlari va funksiyalari, madaniy meros hamda turizm bilan uzviy bog'liqligini ilmiy jihatdan tahlil qilish; festival formatlarining yangilanishi va ijtimoiy-iqtisodiy samaralarini aniqlashdan iborat.

Festival - bu muayyan vaqt va makonda jamiyatning estetik, ma'naviy hamda kommunikativ ehtiyojlarini qondiruvchi, an'anani qayta ishlab ommalashtiruvchi hamda yangi ijodiy shakllarni sinovdan o'tkazuvchi kulturologik institutdir. Nazariy jihatdan festival quyidagi kategoriyalar bilan chambarchas bog'liq. Globalizatsiya sharoitida milliy o'ziga xoslikni saqlash muammosi keskinlashadi. Festival esa merosni muzeylashtirib qo'ymasdan, aksincha, uni "jonli madaniyat" sifatida sahnaga olib chiqadi: kuy-qo'shiq, raqs, marosim, hunar jarayoni, xalq o'yinlari, milliy taom tayyorlash amaliyoti - bularning barchasi festivalda real ijro (performance) orqali namoyon bo'ladi. Masalan, "Boysun bahori" folklor ansambllari, hunarmandchilik va marosimlarning sahnalashtirilgan ko'rinishlari bilan "etnografik teatr" xususiyatiga ega.[1;98]

Xalqaro festivallar ("Sharq taronalari", "Maqom", "Lazgi", Toshkent kinofestivali) davlatning tashqi madaniy siyosati va ijobiy imidjini mustahkamlovchi "yumshoq kuch" vositasiga aylanadi. Bunda san'at va madaniyat siyosiy muloqotni yumshatadi, xalqlar o'rtasida do'stlik va bag'rikenglik g'oyalarini targ'ib qiladi.[2;34]

Ko'plab festivallarda repertuar "klassik an'ana"dan tortib zamonaviy aranjirovkalargacha bo'lgan spektrni qamrab oladi. Bu holat, ayniqsa, "Sharq taronalari"da yaqqol: turli millatlarning milliy musiqasi va zamonaviy sahna talqinlari bir platformada uyg'unlashadi. Natijada festival nafaqat konservatsiya, balki madaniy innovatsiya mexanizmi sifatida ham ishlaydi.

O'zbekistonda festivallar tizimi ichida "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali alohida o'rin egallaydi. U nafaqat yirik madaniy tadbir, balki mamlakatning xalqaro imidjini mustahkamlovchi, turizm oqimini kuchaytiruvchi va milliy musiqa merosini global miqyosda targ'ib qiluvchi strategik platforma sifatida shakllangan. Festivalning ravnaq topish mexanizmlarini bir necha asosiy yo'nalish orqali tahlil qilish mumkin.[3;112]

Birinchidan, "Sharq taronalari"ning kuchli tomoni - makon va ramziylik omilidir. Festival Samarqanddagi Registon maydonida o'tkazilishi bilan tarixiy meros va zamonaviy sahna san'ati o'rtasida tabiiy sintezni yuzaga keltiradi. Registon nafaqat arxitektura yodgorligi, balki "madaniyatlar chorrahasi" g'oyasini ifodalovchi

timsol bo'lgani uchun festivalning mazmuniy ta'sirini kuchaytiradi. Natijada festival oddiy konsertlar majmui emas, balki tarixiy makon bilan uyg'unlashgan "kattalashgan madaniy spektakl" ko'rinishiga kiradi.

Ikkinchidan, festivalning ravnaq topishida xalqaro integratsiya va ishtirokchi geografiyasining kengayishi muhim rol o'ynaydi. Turli mamlakatlardan ijodkorlar qatnashishi festivalni san'at maydoniga aylantiradi: turli milliy musiqalar, cholg'ular, kuy-ohang tizimlari bir sahnada namoyon bo'lib, "Sharq va G'arb madaniy muloqoti" amalga ko'rinadi. Bu jarayon O'zbekistonning ochiqligi, madaniy bag'rikengligi va ko'p madaniyatli muhitini mustahkamlab, festivalni madaniy diplomatiyaning real instrumentiga aylantiradi.

Uchinchidan, "Sharq taronalari" festivalining kuchi - dasturiy ko'p qatlamlilikda. Festival faqat ochilish-yopilish marosimlari va konsertlardan iborat bo'lib qolmay, tanlov, konferensiya, davra suhbatlari, mahorat darslari, ko'rgazmalar kabi elementlar bilan to'ldiriladi. Bu, bir tomondan, festivalni ilmiy-ma'rifiy platformaga aylantirsa, ikkinchi tomondan, turli auditoriyalarni (tomoshabin, tadqiqotchi, musiqachi, talaba, turist) bir vaqtda qamrab olish imkonini beradi. Ya'ni festival o'zining "ommaviylik" va "akademiklik" qirralarini birlashtira olgani uchun barqaror rivojlanmoqda.[4;54]

To'rtinchidan, repertuar va ijro uslublari nuqtayi nazaridan "Sharq taronalari" an'ana va zamonaviylik sintezini shakllantiradi. Festivalda milliy kuy-qo'shiqlar, maqom namunalaridan tortib zamonaviy aranjirovkagacha bo'lgan turli formatlar uchraydi. Bu holat festivalni konservativ doirada cheklab qo'ymaydi, aksincha, milliy musiqani zamonaviy sahna talablari bilan uyg'unlashtirib, uning auditoriyasini kengaytiradi. Shu bois "Sharq taronalari" milliy merosni "muzeylashtirish" emas, balki uni zamon bilan hamnafas holda yashatish modelini taklif etadi.[5;87]

Beshinchidan, festivalning ravnaq topishida turizm va iqtisodiy ta'sir mexanizmi juda sezilarli. Festival davrida Samarqandga turistlar oqimi ko'payadi, mehmonxona bandligi, transport, ovqatlanish, gidlik, suvenir bozori faollashadi. Eng muhimi, festival Samarqandni "mavsumiy turizm"dan "madaniy voqea turizmi" (event tourism) darajasiga olib chiqadi. Ya'ni odamlar shaharni faqat tarixiy obidalar uchun emas, aynan festivalga bog'lab borishga odatlanadi. Bu esa hudud iqtisodiyotiga barqaror daromad keltiradigan mexanizmni yaratadi.

Oltinchidan, "Sharq taronalari" yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash vazifasini ham bajaradi. Tanlovning mavjudligi, xalqaro hay'at baholashi, professional talablar (ijro saviyasi, sahna madaniyati, repertuar milliyligi) yosh ijrochilarni o'z ustida ishlashga undaydi. Shu yo'l bilan festival kadrlar tayyorlash va san'atning davomiyligini ta'minlaydigan institut sifatida ham faoliyat ko'rsatadi.

Umuman olganda, "Sharq taronalari" festivalining ravnaq topish mexanizmi quyidagi zanjir orqali ishlaydi: tarixiy makon + xalqaro muloqot + ko'p qatlamli

dastur + an'ana-zamonaviylik sintezi + turizm-iqtisodiy faollik + iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash. Aynan shu omillar festivalni Markaziy Osiyodagi eng nufuzli madaniy loyihalardan biriga aylantirib, O'zbekistonning madaniy brendi va xalqaro imidjini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.[6;37]

“Sharq taronalari” (Samarqand, Registon) O'zbekistonda festival madaniyatining eng nufuzli modelidir. Festivalning ravnaq topishida bir nechta omil muhim:

- Tarixiy makon (Registon) + sahna estetikasining uyg'unligi: festival “joy ruhini” (genius loci) kuchaytiradi;
- Xalqaro ishtirok: yillar davomida ishtirokchi davlatlar sonining ortishi festivallashuvning institutsional barqarorlashganini ko'rsatadi;
- Dastur ko'pqatlamliligi: konsert, tanlov, konferensiya, ko'rgazmalar va mahorat darslari;
- “An'ana va zamonaviylik sintezi”: repertuar kengligi festival auditoriyasini kengaytiradi;
- Madaniy diplomatiya: O'zbekistonning “ochiq va ko'p madaniyatli makon” sifatidagi imidjini mustahkamlaydi.

Natijada festival nafaqat musiqiy tadbir, balki Samarqand turizmining mavsumiy “pik” nuqtasini yaratadigan mexanizmga aylanadi.

Toshkent kinofestivali (“Ipak yo'li durdonasi”) kino sohasida milliy kinematografiyani xalqaro platformaga olib chiqish, yosh rejissyor va ssenariynavislar uchun pitch, master-klass va forumlar, “Festivallar festivali” tamoyili asosida yuqori sifatli filmlarni auditoriyaga taqdim etish, investor, prodyuser va distribyutorlar bilan bevosita muloqot muhitini yaratish vazifalarni bajaradi. Bu holat festivallar ravnaqining muhim jihatini ko'rsatadi. Festival endi faqat san'at namoyishi emas, balki kreativ industriyalar bozorining infratuzilmasiga aylanmoqda.[7;98]

“Maqom” xalqaro san'at festivali (Shahrisabz/Zaamin) maqomni UNESCO e'tirofi doirasida targ'ib etish, maktablar o'rtasida muloqotni kuchaytirish va yosh ijrochilarni professional sahnaga olib chiqish vazifasini bajaradi. Muhim jihat: festival tarkibida ilmiy-amaliy konferensiya mavjudligi maqomni faqat ijro emas, balki nazariy bilim sifatida ham mustahkamlaydi. Shu orqali ravnaq topishning “akademiklashuv” tendensiyasi ko'zga tashlanadi.[8;90]

“Lazgi” - raqs brendi va UNESCO kapitali sifatida “Lazgi” (Xiva) UNESCO nomoddiy merosi maqomiga tayanib, Xorazm raqs maktabini global auditoriyaga olib chiqadi. Festival raqsni “tomosha”dan tashqari mintaqaviy identitet tili sifatida ko'rsatadi, ochiq osmon ostidagi gala-konsertlar orqali Xivani “teatr makon”ga aylantiradi, raqs semiotikasi, sahna dramaturgiyasi, gender roli kabi ilmiy yo'nalishlarga empirik material beradi.

“Baxshi” va “Boysun bahori” - og‘zaki merosning qayta jonlanishi hisoblanib, unda “Baxshi” festivali dostonchilik an‘analarini asrash, bolalar baxshi maktablari va mahorat darslari orqali avlodlar uzviyligini ta‘minlaydi. “Boysun bahori” esa folklorni “fieldwork” maydoniga aylantirib, marosimlar semantikasi va tog‘ madaniyatining turmush tarzi bilan bog‘liqligini “jonli” ko‘rsatadi. Bu ikki festival ravnaqning muhim mezonini ko‘rsatadi: madaniyatni saqlash + ta‘limiy reproduksiya.[9;56]

“Asrlar sadosi” va hunarmandchilik festivallari - “jonli muzey” va kreativ iqtisodiyot omili hisoblanib, unga ko‘ra “Asrlar sadosi” va hunarmandchilik festivallari amaliy san‘at turlarini yarmarka, jonli ustaxona, ilmiy anjuman, bolalar ma‘rifiy dasturlari bilan birlashtiradi. Ravnaq topish mexanizmi bu yerda ayniqsa aniq hunarmandning mehnati madaniy kapitaldan iqtisodiy kapitalga aylanadi, eksportbop mahsulotlar, brendlash va sertifikatlash masalalari kuchayadi, ustoz-shogird tizimi festival orqali ommaviylashib, yoshlar uchun hunar “ijtimoiy lift”ga aylanadi, tarixiy shaharlar turizmi kuchaytirishga xizmat qiladi.[10;156]

Gastronomik va agro-etno festivallari yangi turizm segmentlari sifatida so‘nggi yillarda gastronomiya va agro-etan‘anaviy festivallar O‘zbekistonda turizmning yangi drayveriga aylanmoqda. Xususan, “Silk Road Gastronomy Festival” - gastro-turizm va madaniy diplomatiyadagi o‘rni sifatida Samarqanddagi gastronomik festival Ipak yo‘li merosi va zamonaviy “fusion” tajribasini uyg‘unlashtiradi. Bu festival oshpazlik maktablari o‘rtasida tajriba almashishni kuchaytiradi, mahalliy mahsulotlar brendlashuvi va gastronomik klaster shakllanishiga turtki beradi, Samarqandni “gastro-turizm markazi” sifatida pozitsiyalaydi, milliy oshxonani “yumshoq kuch” instrumentiga aylantiradi.

Festival davrida mehmonxona bandligi, transport xizmatlari, ovqatlanish, gidlik, suvenir bozori faollashadi. Xususan, tarixiy shaharlardagi festivallar (Samarqand, Buxoro, Xiva) turizm mavsumiyligini boshqarishga yordam beradi: festival “motivatsion sabab” bo‘lib, tashriflarni ko‘paytiradi.[11;87]

Asal va Tandir Festivali O‘zbekistonda milliy gastronomiya, xalq hunarmandchiligi va qishloq xo‘jaligi an‘analarini uyg‘unlashtirgan muhim madaniy tadbirlardan biri sifatida shakllanib bormoqda. Mazkur festival asalarichilik va tandirchilik kabi qadimiy sohalarni targ‘ib etish orqali milliy madaniy merosni asrash, aholi bandligini oshirish hamda ichki va tashqi turizmni rivojlantirishga xizmat qiladi. Festival konsepsiyasi xalqning kundalik turmush tarzida muhim o‘rin tutgan tabiiy oziq-ovqat mahsulotlari - asal va tandir noni atrofida shakllanib, ularning nafaqat gastronomik, balki sog‘lomlashtiruvchi va madaniy ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazishni ko‘zda tutadi.

Asal o‘zbek xalq tabobatida, an‘anaviy ovqatlanish madaniyatida va marosimlar tizimida muhim o‘rin egallagan mahsulot hisoblanadi. Festival doirasida

mamlakatning turli hududlaridan keltirilgan tog‘, o‘tloq va cho‘l asalining namunalari taqdim etilib, ularning tabiiyligi, shifobaxsh xususiyatlari va ishlab chiqarish texnologiyalari keng yoritiladi. Shu bilan birga, mum, propolis, perga va asal asosidagi shirinliklar orqali asalarichilikning kompleks iqtisodiy tarmoq sifatidagi salohiyati namoyon etiladi. Asalarichilik bo‘yicha tashkil etiladigan mahorat darslari va ko‘rgazmalar esa nafaqat tajriba almashish, balki yoshlarni ushbu sohaga jalb etish va uni barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Festivalning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan tandir va nonchilik an‘analari o‘zbek milliy oshxonasining ajralmas ramzi sifatida talqin etiladi. Tandır noni, patir, qatlama va boshqa hududiy non turlarining namoyishi orqali viloyatlar kesimida shakllangan gastronomik xilma-xillik ochib beriladi. Tandır yasash va non yopish jarayonining ustoz-shogird an‘analari asosida ko‘rsatilishi esa milliy hunarmandchilikning uzviy davomiyligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Bu jarayonlar festivalni oddiy savdo yarmarkasidan ko‘ra madaniy-ma‘rifiy maydonga aylantiradi.

Asal va Tandır Festivali madaniy va ko‘ngilochar dasturlar bilan boyitilgan bo‘lib, unda xalq qo‘shiqlari, raqslar, folklor jamoalari chiqishlari hamda hunarmandchilik buyumlari yarmarkalari tashkil etiladi. Ushbu tadbirlar festivalning ijtimoiy ahamiyatini oshirib, turli yoshdagi ishtirokchilar uchun interaktiv muhit yaratadi. Ayniqsa, bolalar va yoshlar uchun tashkil etiladigan o‘yinlar va amaliy mashg‘ulotlar milliy qadriyatlarga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan festival qishloq aholisi bandligini ta‘minlash, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. Mahalliy asal va non mahsulotlarining brend sifatida shakllanishi hududiy iqtisodiyot rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, gastronomik turizmning kengayishiga zamin yaratadi. Natijada festival mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun yangi bozorlar ochish, hududlarning investitsion va turistik jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Asal va Tandır Festivali milliy gastronomiya va hunarmandchilikni uyg‘unlashtirgan kompleks madaniy loyiha sifatida baholanadi. U sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish, milliy o‘zlikni anglash va madaniy merosni kelajak avlodga yetkazishning samarali vositasi bo‘lib, zamonaviy festival industriyasi doirasida barqaror rivojlanish imkoniyatiga ega.

Namangandagi “Gullar festivali” shaharni “gullar shahri” sifatida brendlashga xizmat qiladi. “Ipak va ziravorlar” festivali Buxoroni tarixiy-savdo va hunarmandchilik markazi sifatida mustahkamlaydi. “Lazgi” Xivani raqs madaniyati markazi sifatida ko‘rsatadi. Brending ravnaqning strategik o‘lchoviga aylanadi: festival bir martalik tadbir emas, balki hudud “brend narrativi”ni doimiy ishlab chiqaruvchi mexanizmdir.[12;65]

“Navro‘z” umumxalq festivali sifatida milliy birlik, mahalla va oila institutlarini mustahkamlash, yosh avlodga qadriyatlar uzatish vazifasini bajaradi. “Bolalar

kinofestivali" media-madaniyat va estetik tarbiyani kuchaytiradi. "Baxshi" festivali tarixiy xotira va vatanparvarlik g'oyalarini jonlantiradi.

Ko'plab festivallarda konferensiyalar, davra suhbatlari, master-klasslar mavjudligi festivalni ilmiy muhokama maydoniga aylantiradi. "Maqom", "Sharq taronalari", "Lazgi", "Asrlar sadosi" kabi festivallar tadqiqotchilar uchun empirik material, audio/video hujjatlashtirish, dala-tadqiqot (fieldwork) imkonini beradi.

Sohaning dolzarb masalalari va muammolari sifatida quyidagi omillarni ko'rish mumkin:

- Barqaror moliyalashtirish va iqtisodiy modeli sifatida ayrim hududiy festivallarda homiylik va infratuzilma yetishmasligi;

- Sifat standartlariga ko'ra sahna texnikasi, servis, logistika, xavfsizlik talablarining bir xil emasligi;

- Hujjatlashtirish (arxivlash) muammosi o'rnida nomoddiy meros materiallari tizimli raqamlashtirilmasa, ilmiy qiymat yo'qoladi;

- Marketing va xalqaro kommunikatsiyaga oid festival brendi xalqaro auditoriyaga mos kontent bilan doimiy yuritilmasligi;

- Mahalliy hamjamiyat ishtiroki borasida ba'zan festival "tomosha"ga aylanib, mahalliy jamoaning faol hamkorligi sustlashadi.

Sohaning dolzarb masalalari va muammolari sifatida yuqorida aytib o'tilgan holatlarga nisbatan quyidagi takliflarni amalga oshirishni sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirish omili sifatida qarash mumkin bo'ladi.

- Har bir yirik festival uchun raqamli arxiv (audio/video, notalar, intervyular, kataloglar) yaratish;

- Festival dasturiga doimiy ilmiy treklari (konferensiya, panel, workshop)ni institutsional tarzda biriktirish;

- Hududlar kesimida festival kalendarini turizm mavsumiyligini boshqaradigan tarzda rejalashtirish;

- Hunarmandchilik, gastronomiya va agro-festivallar uchun klaster modeli (qadoqlash, logistika, sertifikat)ni kuchaytirish;

- "Yashil festival" tamoyillari: chiqindini kamaytirish, qayta ishlash, ekologik dizayn;

- Yoshlar uchun "festival akademiyasi": volontyorlik, event-menejment, media-prodyuserlik, sahna rejissurasi bo'yicha qisqa dasturlar.

O'zbekistonda festivallarning ravnaq topishi madaniy merosni asrash va ommalashtirish, turizmni rivojlantirish, hududiy brendlash va kreativ iqtisodiyotning shakllanishi bilan uzviy bog'liq kompleks jarayondir. "Sharq taronalari" kabi xalqaro musiqiy festival O'zbekistonning madaniy diplomatiyasini mustahkamlasa, Toshkent kinofestivali kreativ industriyalar tarmog'ini rivojlantiradi. "Maqom", "Lazgi", "Baxshi", "Boysun bahori" festivallari nomoddiy merosni sahna va ilmiy platforma

orqali himoya qilsa, "Asrlar sadosi" va hunarmandchilik festivallari "jonli muzey" formatida merosni iqtisodiy resursga aylantiradi. Gastronomik va agro-etno festivallar esa turizmning yangi segmentlarini ochib, hudud mahsulotlarini global brendga aylantirish imkonini kengaytiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, festivallar - O'zbekistonning milliy madaniy brendi, xalqaro imidji va hududiy rivojlanish strategiyasida alohida o'rin tutuvchi barqaror madaniy institutdir. Ularni tizimli rejalashtirish, ilmiy-arxivlash, marketing va infrastruktura bilan uyg'un rivojlantirish kelgusida festival ekotizimini yanada kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qoraboyev, Usmon. O'zbek xalq bayramlari. Toshkent: Sharq, 2002. 234-b.
2. Qoraboyev, Usmon. O'zbekiston bayramlari. Toshkent: O'qituvchi, 1991. 154-b.
3. Qoraboyev, Usmon. Madaniy tadbirlar. Toshkent, 2006. 220-b.
4. Qoraboyev, Usmon. Madaniyat masalalari. Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2009. 186-b.
5. Qoraboyev, Usmon. Madaniy-ma'rifiy ishlar metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1995. 250-b.
6. Qoraboyev, Usmon. "O'zbek xalq an'analari va marosimlarining zamonaviy talqini." Madaniyat va San'at. 2008. 14-20.
7. Qoraboyev, Usmon. O'zbek marosimlari va udumlari. Toshkent: Fan, 2004.
8. Qoraboyev, Usmon. "Milliy urf-odatlarining yoshlar tarbiyasidagi o'rni." Ma'naviyat va Hayot 2 (2010): 33-36.
9. Abdurahmonov, Rustam. 2015. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent: Yangi Asr Avlodi. 154-b.
10. Abdurashidov, Shohrux. 2021. "Turizm industriyasida innovatsion yondashuvlar." Iqtisodiyot va Innovatsion Texnologiyalar 5 (2): 45-52.
11. Ahmedov, Jamshid. 2018. Madaniy meros va turizm: nazariya va amaliyot. Toshkent: Ma'naviyat. 144-b.
12. Alimova, Nafisa. 2017. "O'zbekistonda turizm infratuzilmasining rivojlanish tendensiyalari." Iqtisodiyot va Ta'lim 6 (3): 112-118.
13. Alimova, Saodat. 2014. O'zbek xalq bayramlari va marosimlari tarixi. Toshkent: Fan. 78-b.